lari va tenglik masalalari qanday koʻtarilganini, ularning ijtimoiy pozitsiyalarini oʻzgartirishga intilishlari va oʻzlikni anglash jarayonlarining tahlili amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

[1]. Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох. М., 1994, с. 33.

[2]. Стадников Г.В. Зарубежная литература и культура Средних веков, Возрождения и XVII века. Np, ООО ДиректМедиа, 2020, с. 55.

[3]. Hebron, Malcolm. Key Concepts in Renaissance Literature. Great Britain: Bloomsbury Publishing, 2008, p. 1570.

[4]. Casaliggi, Carmen., Fermanis, Porscha. Romanticism. A Literary and Cultural History. Great Britain, Taylor & Francis, 2016.

[5]. Brown, Jane K. Goethe's Faust: The German Tragedy. The United States of America: Cornell University Press, 1986.

[6]. Villanueva, Dario. Theories of literary realism. Albania: State University of New York Press, 1997.

Botirova Anaxon Dilmurod qizi (Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti oʻzbek tili ta'lim yoʻnalishi 2-bosqich talabasi; e-mail: anaxonbotirova362@gmail.com)

PIRIMQUL QODIROV QISSALARIDA DAVR VA QAHRAMON MASALASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Pirimqul Qodirov qissalari, ulardagi ijtimoiy-siyosiy muhit va qahramon oʻrtasidagi bogʻliqliklar muhokamaga tortilgan. XX asrda hukm surgan mustabid shoʻro tuzumi, u olib kelgan qiyinchiliklarning badiiyatga koʻchgan shakli tahlil etilgan.*

Kalit soʻzlar: *davr, qahramon, qissa, badiiy, adib, tuzum, obraz.*

Ботирова Анахон Дилмурод кизы (студентка 2 курса отделения узбекского языка факультета филологии и искусств Ургенчского государственного университета; e-mail: anaxonbotirova362@gmail.com)

ПРОБЛЕМА ЭПОХИ И ГЕРОЯ В РАССКАЗАХ ПИРИМКУЛА КАДЫРОВА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются связи рассказов Пиримкула Кадырова, общественно-политической среды в них и героя. Самодержавная система Шуры, правившая в XX веке, и трудности, которые она приносила, были проанализированы в художественной форме.*

Ключевые слова: *эпоха, герой, повесть, художественный, писатель, система, образ.*

Botirova Anakhon daughter of Dilmurod (2nd-level student of the Uzbek language department of the Faculty of Philology and Arts of Urganch State University; e-mail: anaxonbotirova362@gmail.com)

THE QUESTION OF ERA AND HERO IN PIRIMKUL KADIROV`S STORIES

Annotation. *This article discusses the connections between the stories of Pirimkul Kadyrov, the socio-political environment in them and the hero. The autocratic Shura system that ruled in the 20th century, and the difficulties it brought, were analyzed in the form of art.*

Key words: *era, hero, story, artistic, writer, system, image.*

Kirish (Intoduction). XX asr ijod olami, xususan, oʻzbek adabiyoti uchun tub burilishlar, yangilanishlar asri boʻldi. Isteʼdodlar qadrlanib, haqiqiy ijod uchun yoʻl ochib berildi. Soʻz sanʼati – badiiy adabiyotning barcha janrlarida olam-u odamni tadqiq etishdagi teranlik chuqurlashdi. Zero, "Ijod – bu oʻzini qiynash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, tom maʼnoda, fidoyilik demakdir. Chinakam yozuvchi odamlarning dard-u gʻami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, oʻzi uchun ilhomni, yangi mavzularni shu hayotdan, unda boʻlayotgan oʻzgarishlardan olishi kerakligini barchamiz yaxshi bilamiz" [1;31-b.]. Ana shundagina bu ijod namunasi kitobxon ongiga taʼsir qiladi, uning yuragiga hayajon soladi.

Soʻz sanʼatkori badiiy adabiyotning qaysi turida asar yaratmasin, nigohini umumbashariy muammolar yechimi, azaliy qadriyatlar talqiniga qaratadi. Xususan, qissa janrida voqelikni teran tahlil qilish, inson ruhiyatining tubsiz va qorongʻi puchmoqlariga nazar tashlash, hayot mohiyatini anglatishga eʼtibor kuchaydi. Qissa janri tabiatini kuzatar ekanmiz, unda obrazlar koʻp qirraliligi, konflikt oʻtkirligi, psixologik tahlil chuqurligi, badiiy-tasviriy vositalarining xilma-xilligi, mavzular rang-barangligi koʻzga tashlanadi [2;5–6-b.].

Adabiyotshunoslik ilmidan bizga maʼlumki, har qanday asar oʻz zamonasi, davr muammolariga munosabati, oʻsha kunlarning dolzarb savollariga bergan javobi sifatida maydonga keladi. Ijodkor xoh tarixiy, xoh zamonaviy asar yozsin, ularda oʻz davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼnaviy belgilari oʻz aksini topgan boʻladi [3;383-b.]. Jumladan, Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov yaratgan qissalarning tag zaminida ham ana shu xususiyatlar mujassam.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). P.Qodirovning barcha asarlari, shu jumladan, qissalari ham davr muammolari, zamonaning ijtimoiy-siyosiy muhiti asosida maydonga kelgan. Adib qissalari U.Rasulovaning "XX asr o'zbek qissalari tadriji" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmasida qisqacha tahlil qilingan. Shuningdek, U.Normatov, N.Karimov, M.Qo'shjonov, S.Mirzayev, B.Nazarov kabi munaqqidlarning ilmiy asarlarida to'xtalib o'tilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotning obyekti sifatida P.Qodirovning "Qadrim", "Erk" va "Meros" qissalari tanlandi. Tadqiqotda kuzatish, induksiya, tahlil kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Pirimqul Qodirov deyarli barcha asarida oddiy xalq hayoti, uning mehnatlarini, orzu-umidlarini tasvirlashga intiladi. Bu intilishning samarasini "Qadrim", "Erk", "Meros" kabi asarlar sahifalarida yaqqol ko'rish mumkin.

Pirimqul Qodirovning "Qadrim", "Erk", "Meros" asarlari katta bir davr hayoti asosida yuzaga kelgan. Ma'lumki, 60-yillardan boshlab yangi ijtimoiy texnologik muhit paydo bo'ldi. Yangi ijtimoiy munosabatlar ko'pchilik uchun murakkab bo'ldi: inson endi qanday yashashi kerak, qaysi yo'ldan borishi lozim, kechagi udumlar bilan bugungi yangiliklar kelisha oladimi... Iskandarga ("Qadrim") mo'min-qobillik pand bera boshladi. Oysha ("Erk") inson o'zi uchun o'zi kurashishi lozimligini anglaganday bo'ldi. Tursun ("Meros") faqat mehnat, mehnat deya umrini o'tkazayotgan akasining yashash tarziga qarshi chiqdi. Pirimqul Qodirov qissalarida izlanuvchi qahramonlarga mayoq vazifasini o'tovchi Zulayho, Sattor, Yolqin singari timsollar bor [4;34-b].

Ma'lum bir yoshga borganidan keyin odam o'z qadr-qimmati, hayotdagi o'rni, bu o'rinda dadil tura bilish muammolari haqida o'ylab qoladi. San'atkor esa bu muammolar xususida faqat o'z shaxsiyati nuqtayi nazaridan emas, balki ko'pchilik, umumjamiyat nuqtayi nazaridan qaraydi va tabiiy ravishda bu o'ylar uning ijodiga ham o'tadi. Pirimqul Qodirovning "Qadrim" qissasi shu yo'sinda maydonga keldi [5;305-b]. Haqiqatan ham, qissaning mohiyati faqatgina bosh qahramonning qadr-qimmati haqida emas, balki bosh qahramon timsolida butun bir millatning, xalqning o'zligi haqida hikoya qiladi. Muallifning eslashicha, bu qissaning dunyoga kelishiga mustabid sho'ro tuzumi davrida ko'pchilik yurtdoshlarimizni qiynayotgan hayotiy muammolar va milliy g'urur tuyg'ulari turtki bo'lgan. Chunki u paytlarda mustabid sho'ro tuzumi tilimiz, madaniyatimiz, dinimiz, o'zligimiz, an'analarimizni mensimaygina qolmay, yaxshi joylarda ishlashga, yangilik yaratishga intilgan qishloq yoshlarini ham mensimas edi. Yozuvchi bosh qahramon timsolida butun xalqni boshqalarga qaram bo'lmaslikka, o'z qadr-qimmati yo'lida olg'a intilishga undagan. Bu asarda o'zbek adabiyoti uchun yangi mavzu – gazchilar hayoti va mehnati asos qilib olingan. Iskandar, Zulayho, Davron, Ashur kabi jonli personajlar orqali davr muhiti badiiy gavdalantirilgan. Qahramonlar xarakterining murakkabligi jihatidan Iskandar va Zulayho obrazlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Iskandar bolaligidan og'ir sharoitda katta bo'ladi. O'sha paytlarda ota-onasi dalada ketmon chopish bilan shug'ullanardi. Ba'zan ularning o'rniga Iskandarning o'zi dalaga chiqib, mehnat qilardi. "Kitob o'qishim, bolalar bilan o'ynashim kerak bo'lgan paytlarda ham o'tinga borardim, yo sigirga o't o'rardim, yoki tomorqada otam buyurib ketgan ishni qilardim", deya eslaydi qahramon. Oradan biroz vaqt o'tib, Iskandarning otasi og'ir betob bo'lib, to'shakka mixlanib qoladi. Yoz bo'yi chopiqqa o'zi chiqadi, hatto yettinchi sinfni tugatar-tugatmas maktabni ham tashlab ketishga majbur bo'ladi. Bu qiyinchiliklar faqatgina Iskandarning taqdirida yuz bermagan. O'sha davrda Iskandarga o'xshagan qahramonlar minglab topilardi.

Qahramon kashf qilgan hayot falsafasi quyidagicha jaranglaydi: "Dunyoda pul o'g'risi bor, mol o'g'risi bor, lekin qadr o'g'risi yo'qmi? Birovning qadrini yerga urish yo'li bilan o'z qadrini oshiradigan odam qadr o'g'risi emasmi? Men endi bilyapman: kishiga hayot qanchalik zarur bo'lsa, insoniy qadr-qimmat ham shunchalik zarur. Qornimga emas, qadrimga yig'layman, degan eski maqol esimda bor. Mening qadrim mol-dunyo va o'tkinchi bir dovruq bilan o'lchanmaydi, odamlarimizdan ko'rgan yaxshiligim, jamiyatimizga keltirgan nafim, ...o'rnim bilan o'lchanadi. Menimcha, hayotda, eng muhimi, odamparvar bo'lish-u kishilarimizga yaxshilik qilish, insonning qadr-qimmati uchun ham tinmay kurashish. Chunki kishi o'z qadrini bilmaguncha o'z baxtini tanimaydi" [6;88-b]. Shubhasiz, ushbu go'zal so'zlar bugungi hayotimiz bilan ham daxldordir.

Pirimqul Qodirovning mashhur paxtakor Mamajon Dadajonovning porloq xotirasiga bag'ishlangan "Meros" qissasini o'zbek paxtakorlari mehnatini tasvirlash sohasidagi o'ziga xos yangilik deb aytish mumkin. Asarda paxtakorlar hayoti, ularning mashaqqatli mehnati bo'yab-bezalmasdan, ochiqcha, haqqoniy va to'laqonli aks ettirilgan. Paxtakorlar mehnati shunchaki o'ynab-kulib, dalada yengil-yelpi ish qilish emas, balki mislsiz jismoniy qiyinchiliklarga chidash va ularni yengishdan iborat ekanligi mahorat bilan ochib

berilgan. Qissadagi Yolqin, uning ukasi Tursun, onasi, shuningdek, Toshbekov, Rustam, O‘ktam kabi obrazlar hayotiy va ta’sirchan bo‘lib chiqqan [7;353-b.].

Chindan ham, XX asrning so‘nggi o‘n yilliklariga kelib mamlakat ichki hayotini qamrab olgan jiddiy iqtisodiy nuqsonlar qishloq xo‘jaligini o‘z domiga torta boshladi. Qanchadan qancha insonlar “paxta uchun kurash”ga safarbar etildi, o‘sha davrda endi voyaga yetayotgan yosh avlod ham bu qiyinchiliklar og‘ushida katta bo‘ldi. Qissa qahramonlaridan biri – Tursun bu jarayonlarni shunday hikoya qiladi: “Paxta uchun kurash” – bu so‘zlar mening qulog‘imga ona allasi bilan kirgan bo‘lsa, ajab emas. Mening odam zotidan birinchi taniganim – onam bo‘lsa, dunyoda bor jamiyki narsaning orasidan birinchi taniganim paxta bo‘lgan. Biz besh-olti yasharligimizda onamlar: “Bu yil ona-Vatanga bir million tonna paxta beramiz!” deb gapirib yurishar, hatto majlisda qasamyod ham qilishar edi. Qush uyasida ko‘rganini qilarkan: hali bo‘yim g‘o‘zaning bo‘yiga yetib-yetmasdanoq chanoqda ochilib turgan paxtalardan yulqilab olib, onamning etagiga solardim” [8;22-b.]. Xuddi shuningdek, “ko‘z ochib paxtani, mehnatni ko‘rgan” bosh qahramon Yolqinnig butun umri xalq manfaati haqida qayg‘urish bilan o‘tadi, hatto shu yo‘lda halok bo‘ladi.

Yolqin onasining chekkan iztiroblariga, tortgan qiyinchiliklariga bardosh bermaydi. Onasidan ruxsat olib, mexanizatorlar tayyorlaydigan maktabga o‘qishga ketadi. Inson mehnatini mashina amalga oshirishini, odamlarning qiynalmasligini, har kim o‘z yumushi bilan shug‘ullanishini, o‘quvchilar maktabga borishini ich-ichidan xohlaydi. U yaratgan paxta terish mashinasi tez orada butun respublikaga ovoza bo‘ladi. Albatta, u ixtiro qilgan mashina o‘sha davrning olamshumul yangiligi edi. El-yurt manfaati deb dashtlarga, qo‘riq yerlarga yurish boshlar ekan, paxtazorlarga terim mashinalarini olib kelar ekan, juda ko‘p qiyinchiliklarga duch keladi, tabiat bilan, ona yer bilan yuzma-yuz keladi. Bu jihatdan qissa ma’lum darajada jahon adabiyoti “Chol va dengiz”, “Yalong‘och orol” kabi asarlarni yodga tushiradi. Biroq mazkur asarlardan farqli o‘laroq, Yolqinnng faoliyati el-yurt manfaati ruhi bilan sug‘orilgan.

Yozuvchining navbatdagi asari “Erk” qissasi bo‘lib, unda Toshkentda 1966-yilda bo‘lgan zilziladan keyingi holatlar: shaharni qayta tiklash, modernizatsiyalash va metro qurish jarayonlari, shu bilan birga, oila qurish borasidagi fikrlar ham tasvirlangan. Asarda Sattor, Roziya, Oysha, Maksimich kabi qahramonlar faol ishtirok etadi.

“Erk”da Pirimqul Qodirov yozuvchi sifatida, avvalo, o‘zi tasvirlayotgan voqeaning ijtimoiy negiziga nazar tashlagan. Oila, muhabbat mutlaqo erkin deb e’lon qilinganiga, mana, yarim asrdan ham oshib borayotir. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, nega hanuz yigit sevmagan qiziga uylanishga yoki qiz sevmagan yigitga turmushga chiqishga majbur bo‘lar ekan? Qissada ilgari surilgan eng katta masala–shu. Yozuvchi bu savolga javob ishlaydi. Qissani o‘qigan kitobxon shunday xulosaga keladi: jamiyat iqtisodiy, siyosiy, falsafiy jihatlardan olg‘a ketaverishi mumkin, biroq oila, muhabbat masalalariga tegishli eski tushunchalar yashovchan. O‘zining orzu-havasini pesh qilib, yoshlarning erk-ixtiyori bilan hisoblashmaslik hali ham ko‘p ota-onalarning ongidan chiqib ketganicha yo‘q. Mana shu eskilik sarqiti tufayli qissaning bosh qahramoni Sattor hali oila nima, muhabbat nima ekanligini bilmay turib uylangan. Oyshaxon ham yigit uni sevadimi, yo‘qmi, bu bilan hisoblashmay turmushga chiqqan [10;309-b.].

Qissada ijtimoiy hayot muammolari ham aks etgan. Xususan, o‘sha paytdagi metropoliten qurilishiga bo‘lgan ehtiyojning kuchliligi, metroni loyihalash va bu jarayonda qahramonlarning o‘z o‘rni borligi obrazlar vositasida ochib berilgan.

Xulosa (Conclusion). Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, ijodkor bu ijtimoiy-siyosiy tuzum, turfa xil tengsizliklarni badiiyatga ko‘chirish orqali bugungi kundagi tinch va farovon hayotimizning qadriga yetishga undamoqda. Har bir qissa qahramonining boshidan o‘tgan voqealar barchamiz uchun saboq bo‘ladi, albatta. Zero, adabiyotning eng katta yutug‘i ham ana shundadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Karimov I. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. T., “O‘zbekiston”, 2009, 31-bet.

(2). Rasulova U. XX asr o‘zbek qissalari tadriji. T., “Fan” nashriyti, 2012, 6-bet.

(3). Umurzakov R., Xasanova G. Qissalarda davr va qahramon masalasi//International Scientific Journal of Biruni, 2022, 2-son, 383-bet.

(4). Rasulova U. XX asr o‘zbek qissalari tadriji. T. “Fan” nashriyti, 2012, 34-bet.

(5). Qo‘shjonov M. Saylanma I. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982, 305-bet.

(6). Qodirov P. Qadrim. T., G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007, 88-bet.

(7). Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. T., “Yangi asr avlodi”, 2005, 353-bet.

(8). Qodirov P. Meros. T., “Ilm-ziyo-zakovat”, 2021, 22-bet.

(9). Qo‘shjonov M. Saylanma I. T., G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1982, 309-bet.